



TALABALARING MUSTAQIL TA'LIM KREDITLARINI YIG'ISHLARIDA MUSTAQIL ISHLAR VA ULARNI BAJARISH TURLARI

Toshmatov Gulomjon Olimjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti,

ART pedagogika kafedrasи katta o'qituvchisi

e-mail: toshmatovgulomjon138@gmail.com, tel: +99894-905-12-08

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqa ta'limi yo'nalishi talabalarning musiqiy fanlar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni, musiqiy fanlardan nazariy va amaliy bilim olishda auditoriyadan tashqari mustaqil ta'lim mashg'ulotlarni tashkil etish, auditoriyada olingan bilimlarini mustaqil ta'lim bilan mustahkamlab rivojlantirib borish orqali kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: mustaqil ta'lim, mustaqil ish, kredit soatlari, kredit ballari, mustaqil ijodiy faoliyat, TMI an'anaviy shakllari, TMI elektron shakllari, mustaqil ta'limda masofaviy ta'lim turlari.

САМОСТОЯТЕЛЬНЫЕ РАБОТЫ И ВИДЫ ИХ РЕАЛИЗАЦИИ В НАКОПЛЕНИИ СТУДЕНТАМИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ КРЕДИТОВ

Annotatsiya. В статье рассматривается роль самостоятельного обучения в формировании знаний, умений и навыков студентов музыкального образования по музыкальным дисциплинам, организация самостоятельной учебной деятельности вне учебных занятий по получению теоретических и практических знаний по музыкальным дисциплинам, формирование профессиональных компетенций путем закрепления и развития знаний, полученных на занятиях, в процессе самостоятельного обучения.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, самостоятельная работа, зачетные часы, зачетные баллы, самостоятельная творческая деятельность, традиционные формы ТМИ, электронные формы ТМИ, виды дистанционного обучения при самостоятельном обучении.

INDEPENDENT WORKS IN THE COLLECTION OF STUDENTS' INDEPENDENT EDUCATIONAL CREDITS AND TYPES OF THEIR

Annotatsion. This article discusses the role of independent learning in the development of knowledge, skills and qualifications of students of the music education major in musical disciplines, the organization of independent learning activities outside the classroom in obtaining theoretical and practical knowledge in musical disciplines, the



formation of professional competencies by consolidating and developing the knowledge gained in the classroom with independent learning.

Keywords: independent learning, independent work, credit hours, credit points, independent creative activity, traditional forms of TMI, electronic forms of TMI, Types of distance learning in independent learning.

KIRISH. Mamlakatimizda Oliy ta'lif o'quv yurtlari o'qitishning kredit modul tizimiga o'tib faoliyat yurita boshlagandan son'g ta'lif tizimida qator islohotlar amalga oshdi. Auditoriya mashg'ulotlari qatori mustaqil ta'lif mashg'ulotlarini o'rni va ahamiyati oshib auditoriyadan tashqari ta'lif faoliyatiga e'tibor yanada kuchaytirildi. Chunki kredit modul tizimining o'quv reja va dasturlarida talabaning yig'ishi kerak bo'lgan o'quv kredit soatlarining umumiyligi yig'indisida mustaqil ta'lif soatlarining ulushi 60 % ni tashkil etilishishini taqsimlab qo'yildi. Bu o'qitish tizimi orqali talabalarni mustaqil ta'lif olishga bo'lgan qiziqishlari va mas'ulyatlarini oldingi o'qitish tizimiga nisbatan anchagina oshirdi. Shu bilan birgalikda o'qituvchi rahbarligidagi mustaqil ta'lif faoliyati rivojlandi. Xo'sh, mustaqil ta'lif bu qanday ta'lif? Kredit modul tizimida u qanday tashkil etiladi? Musiqa ta'limida musiqiy fanlardan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda ayniqsa mustaqil ta'lif hamda mustaqil ishlari qanday amalga oshiriladi. Talabalar kredit soatlarini to'plashliklari uchun qanday mustaqil ishlarni bajarishlari kerak bo'ladi kabi qator savollaga javob berish maqsadida quyidagi ma'lumotlarni yoritishga harakat qildindi.

Mustaqil ta'lif bu talaba tomonidan o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir. Mustaqil ish - o'qituvchining topshirig'i va rahbarligida o'quv vazifasini hal etadigan talimning faol metodi hisoblanadi. Mustaqil ta'lif qo'yilgan maqsad bilan bog'liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o'z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Ushbu maqolada kredit modul tizimining musiqa ta'limida musiqiy fanlardan talabalarning mustaqil ta'lif kreditlarini yig'ishda mustaqil ishlar va ularning



turlari haqida so'z boradi. Talabalar o'qitilayotgan fanlardan mustaqil ishlarni bajarishlari orqali o'zlarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishi va ijrochilik texnik mahoratlarini oshirishlarida mustaqil ta'larning o'ziga xos o'rni haqida fikr yuritiladi. Shuningdek mustaqil ta'larning topshiriqlarini bajarish orqali semester davomida yig'ishlari kerak bo'lgan kredit ballarini miqdori hamda talabaning fanlar bo'yicha oz'lashtitish ko'rsatkichlarini ko'tarilishida mustaqil ta'larning foydali tomonlari yoritib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. Respublikamizda musiqa ta'limi ta'lim tizimida qator olimlar ilmiy tadqiqot ishlari bilan shug'ullanganlar. Jumladan talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish, mustaqil ta'lim orqali talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, shu jumladan, musiqiy nazariy va amaliy fanlarni o'qitishda mustaqil ta'limni metodik asoslarini takomillashtirish, musiqiy fanlarning axborot ta'lim resurslarini samarali tashkil etish va boshqarish, talabalarda mustaqil axborotlar bilan ishslash madaniyatini shakllantirish bo'yicha ko'pgina masalalarini tadqiq etgan republikamiz pedagog olimlari Q.Panjiyev, F.Safoyeva, U.Yuldashev, H.Nurmatov, G.Sharipova, F.Xalilov kabi olimlarizmizning ilmiy tadqiqot ishlarida, shuningdek musiqiy fanlar bo'yicha tayanch va fanga oid kompetensiyalarni loyihalash, talabalar kompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini ishlab chiqishga oid fikrlar U.Inoyatov, D.M.Mamatqulov, A.Raximov, J.Tolipova, N.Turdiyev, J.Usarov, O.Qo'ysinov va boshqalarning ilmiy tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlarida talabalarda mustaqil ta'lim olish kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari, tayanch kompetensiyalarni shakllantirish, talabalarning mustaqil ishlarini bajarish kompetentligini rivojlantirishning didaktik asoslari haqida V.I.Baydenko, E.Zeyer, I.Zimnyaya, N.Manko, A.Markova, YE.Nikiforova, I.Frumin, G.Xamatgaleyeva, A.V.Xutorskiy, E.Sharipova kabi olimlarning tadqiqotlarida kuzatish mumkin. Shu bilan birgalikda mahalliy olimlar tomonidan ham mustqil ta'limga oid bir qator mavzular doirasida ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, G.M.Musaxanova



"Mustaqil ta'lif jarayonida talabalarning tashkilotchilik qobiliyatlarini rivojlantirish", Sh.Sh.Aripova "Ingliz tilini o'qitishda talabalarning mustaqil ta'lif olish kompetensiyasini rivojlantirishning metodologik asoslari", M.G.Oratova "Talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda mustaqil ta'lifdan foydalanish metodikasini takomillashtirish" (biologiya o'qitish metodikasi fani misolida), A.J.Janabergenova "Axborotlashgan ta'lif muhitida talabalarning mustaqil ishini tashkil etish metodikasini takomillashtirish" mavzularida ilmiy tadqiqot ishlarini bajarganlar.

NATIJALAR. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki mustaqil ta'lif tizimini o'rghanishimiz natijasida bu tizimga oid qator ma'lumotlar hamda bu tizimni talabalar tomonidan amalda bajarish uchun ishlab chiqilgan qoidalar, yo'riqnomalar va ko'rsatrmalar ishlab chiqilganligi aniqlandi. Jumladan, "Mustaqil ta'lif" - bu talabaning o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish yo'lidagi faoliyati bo'lib, u pedagog rahbarligida yoki mustaqil ravishda amalga oshiriladi. Musiqa ta'lifida mustaqil mashg'ulotlar quyidagi afzalliklarga ega hamda talabaning shaxsiy mas'uliyatini oshiradi.

Musiqa ta'lifining o'ziga xos ijodiy va amaliy xususiyatlarini e'tiborga olgan holda talabalarning mustaqil ta'lifi har bir modul bo'yicha o'qituvchi rahbarligida va mustaqil tarzda quyidagi shakllar orqali amalga oshiriladi. O'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ta'lifida o'qitiladigan fanlardan me'yorashtirilmaydigan musiqiy fanlardan kreditlarni belgilash va o'tkazish shakllari rejalashtirilgan bo'lib, ular har bir amaliy mashg'ulot bo'yicha yakuniy hisobot shaklida qabul qilinadi. Kredit-modul tizimida musiqiy fanlaridan mustaqil ta'lifni amaliy mashg'ulotda yoki undan keyin amalga oshirilishi mumkin. Har bir amaliy mashg'ulotdan so'ng masofaviy ta'lif platformasida musiqa ta'lifi ta'lif yo'nalishi talabalarida mustaqil ta'lif uchun o'qituvchining maslahat darslari tashkil etiladi.

Talabaning mustaqil ta'lifini bajarish turlari va mustaqil ta'lif shakllariga o'qituvchi tomonidan hech qanday ko'rsatma berilmaydi va baholanmaydi, balki talabaning o'zi qiziqishlaridan kelib chiqib ularni amalga oshiradi. Fanni o'qitishda quyidagi talabaning mustaqil ta'liflari shakllari qo'llaniladi. Ya'ni, talabaning



mustaqil ta'lismashg'ulotlari hajmi, talabalar bilimini nazorat qilish va baholashda fanning xususiyatidan kelib chiqqan holda shakllantirish maqsada muvofiq hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ta'limi bu – talabaning o'quv dasturidagi aynan mustaqil o'zlashtirishi lozim bo'lgan faoliyat turi bo'lib, musiqiy-nazariy va amaliy fanlardan musiqa savodxonligini takomillashtirish uchun mustaqil ta'lismoshkiriqlarini bajarishga qaratilgan faoliyatdir. Shu tariqa talabalarning o'zlarining kasbiy fanlaridan muayyan bilimlarini oshirishga yo'naltiriladi.

Talabalar mustaqil ta'limi mazmuni mantiqiy fikrlashni, ijodiy faollikni, o'quv materialini o'zlashtirishda tadqiqotchilik yondlashuvini shakllantirishga imkon beruvchi amaliy topshiriqlarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi.

Odatda musiqiy fanlardan mustaqil ta'limi talabaning to'la mustaqil faoliyati bilan birgalikda auditoriyadan tashaqari bajariladigan o'qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ta'limi o'z ichiga oladi.

Kunduzga ta'lismoshkirlida bakalavriatda musiqa fanlaridan talabaning mustaqil ta'liming umumiyo soatlari fan hajmining yarmini (50/50) yoki (40/60) tashkil etish kerak. Sirtqi yoki masofali ta'lismoshkirlida fanga ajratilgan umumiyo o'quv yuklamaning 4/3 qismini tashkil etishi maqsadga muvofiqdir.

MUHOKAMALAR. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki mustaqil ta'liz tizimini o'rganishimiz natijasida bu tizimga oid bir qator muhokama qilinishi kerak bo'lgan mavzular jaroyonlar ham aniqlandi. Talabaning mustaqil ta'limi tashkil etish oliy ta'lismoshkilotining asosiy me'yoriy hujjatlari, jumladan ishchi o'quv dasturlari (sillabus)da hamda alohida mustaqil ta'lismoshkirlida fan modullarini mustaqil o'rganish qismi aks ettiriladi. Yevropa kredit-modul tizimida talabalar mustaqil ta'lismoshkirlari uchun professor-o'qituvchi mehnatiga haq to'lash tizimi joriy etilgan. Biroq, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'liz tizimi vaqt me'yorlarida mustaqil ta'lismoshkirlari professor-o'qituvchining asosiy o'quv yuklamasi sifatida kiritilmagan. Buning asosiy sababi kredit-modul tizimidagi vaqt me'yorlar e'tiborga olingan me'yoriy talablar ishlab chiqilmaganligidandir.

Talaba va o'qituvchilarida umumiyo o'qish yuklamasining aynan qancha qismi dars, auditoriya yoki mustaqil ta'lismoshkirlariga to'g'ri kelishi bo'yicha Yevropa kredit-

modul qoidalarida ushbu masala bo'yicha aniq talab yoki chegara belgilamagan. Bunga ko'p sabablarni keltirish mumkin. Masalan, ta'lif jarayonlari yoki modul har doim ham o'z tarkibiga auditoriya soatlarini qamrab olavermaydi. Bunga misol qilib o'quv dasturidagi o'quv amaliyoti, bitiruv oldi amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi va shu kabi o'qish elementlari va modullarni keltirishimiz mumkin. Ko'rib turganingizdek, bunday o'qish elementlarida auditoriya soatlari bo'lmaydi.

Bugungi kredit-modul tizimida faoliyat yuritadigan ko'pgina oliy ta'lif tashkilotlari amaliyotini tahlil qilganimizda, ularning aksariyatida auditoriya soatiga ega bo'lgan fan va modullarda auditoriya va mustaqil o'qish soatlari nisbati o'rtacha 40/60 foiz ekanligini kuzatishimiz mumkin. Bu nisbat boshqacha qilib aytganda:

$1=1.5$ to'g'ri keladi. Ya'ni, talaba muayyan fan bo'yicha belgilangan har 1 soat dars uchun unga darsdan tashqarida bir yarim soat mustaqil o'qishi, tayyorlanishi kerak bo'ladi. $6 \text{ Kredit} = 180 \text{ soatli fanning o'quv yuklamasi}$ ($40\% \text{ auditoriya soatlar} / 60\% \text{ mustaqil o'qish soatlar}$) dan iborat, Bunda OTT 1 kredit uchun 30 soatlik o'qish yuklamasi belgilagan bo'lsa, undan 12 soati ($30*40\% = 12$) auditoriya soatlari, 18 soati ($30*60\% = 18$) esa talabaning mustaqil o'qish soatlariga to'g'ri keladi. Ushbu taqsimot asosida 6 kreditlik fan o'qish yuklamasini aniqlaydigan bo'lsak, talaba ushbu fan bo'yicha belgilangan kreditlarni qo'lga kiritish uchun semestr davomida 72 soat ($(30*6)*40\% = 72$) auditoriya darslarini, 108 soat ($(30*6)*60\% = 108$) uyda va ARMda mustaqil o'qish yuklamasini bajarishi kerak bo'ladi. Kredit-modul tizimida bir auditoriya akademik soat 40-45 minutga teng.

Yuqorida qoidalardan shuni tushunishimiz mumkinki, kredit-modul tizimida talabaning bilim olish vaqtini tushunchasi dars vaqtini tushunchasi bilan cheklanib qolmasdai, talaba o'qish uchun sarflagan umumiy vaqt bilan o'lchanadi. Unda yana bilimning manbai faqat o'qituvchi yoki auditoriya emasligiga ishora qilinadi. Qisqacha aytganda, kredit-modul tizimida o'qish vaqtini tushunchasiga o'qituvchi nuqtai nazaridan emas balki talaba nuqtai nazaridan yondashiladi.

Talaba o'qish yuklamasining bu tarzda taqsimlanishi ta'lif olish jarayonida mas'uliyatni ma'lum darajada o'z yelkasiga olishi, fan bo'yicha darsda va darsdan tashqarida muntazam ravishda o'qib borishi kerakligini bildiradi. Eslatib o'tamiz, 1



soat auditoriya vaqt uchun talaba 1.5 soat uyda va kutubxonada o'qishi zarur. Lekin bu jarayon ko'p jihatdan o'qituvchining mas'uliyagiga ham bog'liq. Chunki, talabalarni o'z vaqtlaridan samarali foydalanish uchun ularga darsdan tashqarida o'qish uchun qiziqarli materiallar va muammolar berib borish o'qituvchining vazifasidir. Chunki, bunday material va muammolarsiz talaba darsdan tashqarida fan bo'yicha nimani o'qishi yoki o'rganishi mumkinligi aniqlashga qaratilgan bo'ladi.

Kredit ta'lim tizimi sharoitida sirtqi ta'limda o'quv jarayonini tashkil qilishning o'ziga xosligi shundaki, u talabalarining umumiyligi mehnat sig'imini, auditoriya va mustaqil ta'lim nisbatini, o'quv yilidagi kontakt haftalar sonini aniqlash bilan bog'liqdir.

Talabalarining shaxsiy ta'lim trayektoriyalarini rejalshtirish sirtqi ta'lim shaklini tashkil qilishning quyidagi xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan ishchi o'quv rejalar asosida amalga oshiriladi:

sirtqi ta'limning ishchi o'quv rejasi o'z mazmuniga va umumiyligi mehnat sig'imiga ko'ra kunduzgi ta'lim shaklidagi o'quv rejasi bilan mos bo'lishi shart;

sirtqi ta'lim shakli bo'yicha ham bakalavriat ta'lim dasturini o'zlashtirish uchun 3/4 o'quv yiliga qarab, 180/240 kredit ajratiladi. Auditoriya va mustaqil ta'lim uchun ajratilgan kreditlarning umumiyligi nisbati mos ravishda 20-25% va 75-80% bo'lishi tavsiya etiladi. Kontakt soatlar miqdori semestr davomiyligiga karrali bo'lishi zarur, semestr davomiyligi odatda bir yilda 6-8 haftani tashkil etadi. Semestr ikkita sessiyaga – o'quv (3-4 hafta) va imtihon (3-4 hafta) ajratilishi mumkin;

Sirtqi ta'lim shaklda o'qishning me'yoriy muddati – 5 yil, biroq bu muddat olyi o'quv yurti tomonidan 4 yilgacha etib belgilanishi lozim deb hisoblaymiz. Chunki, musiqa ta'limi bakalavriat ta'lim yo'nalishida kunduzgi ta'lim shaklida o'qish muddati 3 yil. Bu qisqa fursat. Bu fursatda umumiyligi o'rta ta'lim maktablari uchun malakali mutaxassis musiqa o'qituvchilarini tayyorlash qiyin. Chunki, musika ta'limiga asosan o'qishga kiriuvchilarning aksariyat qismi havaskorlardan iborat bo'ladi.

Kunduzgi ta'limdan farqli ravishda sirtqi ta'limi talabalari uchun oraliq nazorat imtihonlari semestr yakunida fan bo'yicha yakuniy nazorat imtihongacha



bo'lgan davrda mustaqil ta'lif topshiriqlari professor-o'qituvchi, tyutor tomonidan bir marotaba o'tkaziladi.

Yevropa kredit-modul tizimi sirtqi ta'lif shaklida talabaning ma'lomtnoma-yo'llanmasi va o'quv-uslubiy majmuasi taqdim etiladi, unda talabaning shaxsiy o'quv rejasи, tanlov fanlari katalogi, sillabus, amaliy mashg'ulotlar rejasи, faol tarqatma materiallar, talaba mustaqil ta'lifi uchun uslubiy materiallar, masofaviy ta'lif materialari jamlangan bo'ladi. O'quv-uslubiy materialarda talabaning o'qituvchi bilan virtual aloqaga chiqishi uchun amaldagi murojaat manzillari ko'rsatilishi lozim. Boshqacha aytganda talaba elektron platformalar bilan ishslash malakasiga ega bo'lishi kerak.

Masofaviy ta'lif zamonaviy axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga asoslangan, masofadan turib o'qituvchi va talaba o'rtaida bevosita muloqot mayjud bo'lмаган holda ta'lif berishga imkon beruvchi ta'lif jarayonini tashkil qilish usulidir. Masofaviy ta'lif jarayoni masofaviy ta'lif portali, keys-texnologiyalar, Internet- texnologiyalar va TV-texnologiyalar vositasida amalga oshirilishi mumkin.

Masofaviy ta'lif platformalari keyingi davrlarda O'zbekiston oliv ta'lif tizimida keng ommalashgan Moodle LMS, HEMIS, Google Classroom, o'qituvchilarining shaxsiy saytlari, "Ye-MINBAR" platformasi, axborot yetkazish va nazoratni amalga oshirishga imkon beruvchi "bulutli texnologiyalar" orqali amalga oshirilishi mumkin. Keys texnologiyalar odatda fanlar mazmuni bilan batafsilroq tanishishga va o'z bilimini tekshirish bo'yicha qator nazorat tadbirlarini o'tkazishga imkon beruvchi o'quv-uslubiy hujjatlar majmualari vositasida amalga oshiriladi.

Musiqa fanlaridan talabaning mustaqil ta'lifi quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

1). Talabaning bevosita o'zi tomonidan mobil qurilmalar orqali bajaradigan mustaqil ta'lif:

- ✓ darsga tayyorlanish – ma'ruza matnlari, vodkastlar, video materiallari, audio yozuvlarni o'rganish, tayyorlash;



- ✓ axborot izlash – o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib taqdim qilingan dayjest orqali internet materiallarini o‘rganish;
- ✓ FAQ (ko‘p so‘raladigan savollar) – o‘zini qiziqtiradigan muammolarga o‘rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash, o‘rganish;
- ✓ Forum – fan mavzulari bo‘yicha telegramm kanallari yoki masofaviy ta’lim platformalarida fikr almashish;
- ✓ test yechish – o‘rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan moduliga oid materialarni mustahkamlash;
- ✓ taqdimot – berilgan mavzu bo‘yicha slayd va video materiallar vositasida chiqish qilish.

2) An’anaviy shaklda o‘qituvchi rahbarligidagi talabaning mustaqil ta’limi:

- cholg‘u asarini mashq qilish – amaliy (ijodiy) yondashgan holda cholg‘u asarini mukammal ijro etishni mustaqil bajarish;
- xonandalik asarini mashq qilish – amaliy (ijodiy) yondashgan holda xonandalik asarini mukammal ijro etishni mustaqil bajarish;
- musiqiy-nazariy fanlardan referat tayyorlash – muammoning yozma bayoni, bunda adabiy manbalar sharhlanadi, o‘quv adabiyotlar vositasida tahlili bayon qilinadi. Referat hajmi odatda 12-16 betlar atrofida, kirish, bitta bob, xulosa, foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat holda tashkil etiladi;
- kollokvium – o‘quv modulining nazariy qismini o‘zlashtirilganligini tekshirish maqsadida suhbat uyushtirish;
- esse – dolzarb mavzu bo‘yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlarda yozma bayon qilish;
- keys-stadi – o‘quv jarayonidagi muammoli vaziyatlar bo‘yicha belgilangan shakldagi topshiriqlar bo‘yicha yechim izlash;
- ish o‘yinlari – kasbiy faoliyat jarayonlarini imitatsiya qilish, sahnalashitirish, rollarni musiqiy asarlar vositasida ijro etish orqali kasbiy ko‘nikmalar ortirish;
- glossariy – berilgan mavzu bo‘yicha atamalarni qisqa izohlash;



- kurs ishi – fan yoki fanlar majmuasi (musiqa tarixi, musiqa nazariyasi, o‘zbek xalq musiqa ijodi, cholg‘u ijrochiligi, an’anaviy xonandalik, vokal ijrochiligi, xor va xorshunoslik va hokazo) mavzu muammosi bo‘yicha o‘quv-metodik qo‘llanmalar asosida tayyorlanadigan yozma ish hisoblanadi. Odatda, kurs ishi ma’lum bir muammo mavzusini tahliliga bag‘ishlanadi. Uning tarkibi kirish, asosiy qism, xulosa, glossariy, foydalangan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat holda 20 betdan kam bo‘lmagan holda shakllantiriladi;
- amaliyot hisoboti – o‘tkazilgan o‘quv amaliyot (kuzatuv, o‘quv-pedagogik, malakaviy)lari natijalari bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar asosida tayyorlanadigan yozma ish usuli;
- fan to‘garaklarida ishtirok etish – talabaning fan to‘garaklarida o‘zlashtirish lozim bo‘lgan asar repertuari ustida mustaqil ishslash;
- tanlov, festival, bayram tadbirlarida tayyorgarlik ko‘rish – talaba mustaqil, konsertmeyster, musiqa rahbari hamrohligida musiqa asarini tayyorlash uchun tayyorgarligi;
- fan olimpiadasiga qatnashish – musiqiy-nazariy hamda musiqa tarixi fan olimpiadasiga mustaqil, konsertmeyster, musiqa rahbari hamrohligida tayyorgarlik ko‘rish;
- ilmiy anjumanlarda ma’ruza qilish – fanning dolzarb muammosi hamda uning yechimiga bag‘ishlangan mavzu yuzasidan taqiqot ishini bajarish;
- ilmiy tezis va maqolalar tayyorlash – fanning biror bir dolzarb muammoasi va uning yechimiga bag‘ishlangan tadqiqot. Uning tarkibida kirish, asosiy qism, xulosa bo‘ladi.

3). Elektron shakldagi talabalar mustaqil ta’limi:

- Link – internet havolasini ochib unda keltirilgan video yoki matn shaklidagi materialni belgilangan hajmda izohlash;
- Chart – jadval, diagramma va sxemalarni cheklangan hajmda tahlil qilish.
- Q/A – masofaviy ta’lim platformasida o‘qituvchi tomonidan berilgan savollarga belgilangan hajmda yozma javob berish. Bunda o‘zi ijro etgan asarlarning video-audito yozuvlari ham kiritiladi;

- Reviyew – taqdim qilingan manbaga annotatsiya yozish.
- SWOT – talaba biror tushunchani cheklangan hajmda SWOT-tahlil qiladi;
- Interviyew – muammoni tadqiq qilish bo'yicha suhbat uyushtirish va unimasofaviy ta'lif platformasiga yuklash;
- Google Apps – Google Classroom platformasida hamkorlikda slaylar, jadvallar, matnlar shaklidagi topshiriqlarni bajarish;
- Dayjest – berilgan mavzu bo'yicha internet-havolalar to'plamini keltirish, kartoteka tuzish va ularni qisqa izohlash;
- Report – talabalar laboratoriya mashg'ulotlari bo'yicha hisobotlarini masofaviy ta'lif platformasiga kiritish.

Mustaqil ishslash har bir talabandan ma'lum bir tizimga rioya qilishni, tirishqoqlikni, maqsad sari intilishini talab etadi. Shuning uchun ham ko'pchilik talabalarda oliy o'quv yurtidagi kundalik hayotni to'g'ri tashkil qilish muammosi paydo bo'ladi. Ba'zi birinchi kurs talabalari o'rganilayotgan materiallarni yetarli o'zlashtirib olish uchun vaqt yetishmasligidan, yuklamalar ko'pligi uchun kam dam olayotganliklaridan shikoyat qiladi.

Bunday vaziyat o'z vaqtini to'g'ri taqsimlay olmagan, har bir daqiqasining qadriga yetmagan talabalardagina sodir bo'ladi. Shunga ko'ra, mustaqil ishslashda kun tartibiga qat'iy rioya qilgan holda ish boshlash to'g'ri va maqsadga muvofikdir. Kun tartibini maqsadga muvofiq tarzda tuzish uchun quyidagicha ish yuritish kerak:

Bir sutkani bir qancha zaruriy ulushlarga bo'lish kerak: bunga ishslash, ovqatlanish, badan tarbiyasi, hordiq chiqarish, xo'jalik ish lari va shu kabilar kiradi. Kun tartibini tuzishdan maqsad har bir talabaning ma'lum tartibda ish olib borishiga, hech narsani esdan chiqarmay, hamma narsaga vaqt ajratish, har bir ishni o'z muddatida bajarishga o'rgatishdan iboratdir. Kun tartibini har bir kishi o'zining shaxsiy fiziologik imkoniyatlarigagina emas, balki umuminsoniy qonun-qoidalarga qarab ham tuzishi mumkin.

Vaqtni to'g'ri taqsimlash va mustaqil ishslashni oqilona tashkil etish, mustaqil ishslashning forma va metodlarini aniqlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. U yoki bu fanlardan uyga berilgan vazifalarni bajarish mustaqil ishning oddiy shakli



hisoblanadi. Murakkab shakliga esa o'tilgan darslar-ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlar, seminar va laboratoriyalar, bo'limlar yuzasidan adabiyotlarni mustaqil ravishda tahliliy o'rganib chiqish, ayrim savollarga aniq javoblar topish kiradi. Manbalarni mustaqil o'qish yo'li bilan qo'yilgan savollarga bir necha adabiyotlarni umumlashtirib javob topishga o'rgatib borish amalda yaxshi natijalar beradi.

XULOSA. Kredit modul tizimida musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim jarayonidagi mustaqil ishlar talabalarning musiqiy-nazariy fanlarni o'rganishdagi qiziqishini oshirib, nazariy bilimlarini amaliyat bilan bog'lashga yordam beradi. Shuningdek, ijodkorlikni rivojlantirib va zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek mustaqil ta'lim orqali fan kreditlarini to'plash talabalarga vaqt va mablag' tejamkorligi, shaxsiylashtirilgan ta'lim, chuqur o'rganish va mas'uliyatni oshirish kabi ko'plab afzalliklarni beradi. Mustaqil ishlar ta'lim sifatini oshiradi va talabalarning bilim darajasini yuqoriga ko'tarishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 31.12.2020 yildagi 824-sun (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 31.12.2020-y., 09/20/824/1689-sun; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 05.04.2022-y., 09/22/153/0266-sun)
2. Tosheva, R. (2023). Oliy ta'lim tizimida mustaqil ta'limning ahamiyati. Yosh tadqiqotchi jurnali, 2(3), 157-162.
3. Botirkhanovich, Shokirkhanov Bakhtiyorhon. "The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution." Central asian journal of arts and design 5.1 (2024): 19-22.
4. Gaziyev J. J., Aliyeva N. R. Dmitriy dmitrievich shostakovitch life and work //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – Т. 10. – №. 10. – С. 1181-1185.
5. Syfiddinovich, Axmedov Baxodirxon. "Musiqa cholg 'ularining ilk shakl va turlari." journal of innovations in scientific and educational research 7.2 (2024): 92-96.
6. Тошматов, Г., & Даминова, Г. (2022). Принципы организации самостоятельного обучения в кредитно-модульной системе. *Общество и инновации*, 3(5/S), 50-57.
7. Тошматов, Гуломжон, and Гулмира Даминова. "Кредит-модуль тизимида мустақил таълимни ташкил этиш тамоийиллари. "Общество и инновации 3.5/S (2022): 50-57.
8. Dilfuza, N. (2024, april). Ta'lim jarayonidagi mustaqil ta'lim shaklini rivojlantirishda sun'iyy intelekt imkoniyatlaridan foydalanish. In Proceedings of International Educators Conference (Vol. 3, No. 4, pp. 250-252).



9. Turopova, N., & Boltayev, A. (2024). Oliy ta'lim muassasalarida kreativ yondashuv asosida mustaqil ta'limni tashkil etishning didaktik imkoniyatlari. *Молодые ученые*, 2(9), 16-23.
10. Таджибаев А.Б. Аниқ ва табиий фанлар интеграциясига асосланган ягона графикаий таълим тизимини амалиётга жорий этишнинг педагогик механизmlари // Наманган давлат университети илмий ахборотномаси. – Наманган, 2019 й. – 344-349-бетлар.
11. Tadjibayev A.B. Chizmachilikdan ilmiy-tadqiqotning shakl, mazmun, metodlar uzviyligi // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – Namangan, 2024 y. 5-son. – 910-913-бетлар.
12. Toshmatov, G. O, & To'rabayeva, M. (2024). Talabaning musiqiy fanlardan mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish ko'nikmalarini shakllantirish. *Journal of universal science research*, 2(11), 72-78.
13. Олимжонович, Т. F. (2023). Мусиқий таълим жараёнида талабалар мустақил ишларининг ўрни ва аҳамияти. *Journal of Intellectual Property and Human Rights*, 2(6), 32-37.